



TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I

2023 - yil 8 - iyun

169-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 31-maydagi 338-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 10-moddasi hamda Yer kodeksining 36-moddasi 1-qismining 1-kichik bandiga muvofiq hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 31-maydagi 338-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining “Yer maydonlarini Toshkent shahar zaxira yer fondiga o'tkazish to'g'risida” 2023-yil 31-maydagi 338-14-0-Q/23-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahar hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

Toshkent shahar hokimining “Box Street” loyihasi doirasida xizmat ko'rsatish obyektlarini barpo etish to'g'risidagi 2022-yil 1-iyundagi 572-14-0-Q/22-son qaroriga asosan Toshkent shahar, Yangihayot tumanidagi ko'p qavatli uylarga tutash avtomobil yo'li bo'yi hududida joylashgan “Toshkent city” xalqaro ishbilarmonlik markazi tasarrufida bo'lgan 3,1 gektar yer maydoni (chegara rejasiga muvofiq) Toshkent shahar zaxira yer fondiga o'tkazib berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari D.Xalisov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi



X.Inogamov